

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Qishloq xo'jalik korxonalari investitsion jozibadorligi ko'rsatkichlar tizimi va uni oshirish maqsadlari tahlili

Xatamov Ochildi Qurbonovich, Badalov Jamshid Jamolovich

Системы показателей и анализ целей повышение инвестиционной привлекательности сельскохозяйственных предприятий

Хатамов Очилди Курбанович, Бадалов Джамшид Джамолович

Systems of indicators and analysis of goals to increase the investment attractiveness of agricultural enterprises

Khatamov Ochildi Kurbanovich, Badalov Jamshid Jamolovich

Received: May 15, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotasiya.** Maqolada qishloq xo'jaligi investitsion jozibadorligini baholashda tuziladigan ko'rsatkichlar tizimiga qo'yiladigan talablar va ular rioya qilishi zarur bo'lgan tamoyillar yoritilgan. Shuningdek, maqolada agrosanoat majmuasi investitsion jozibadorligini oshirishda mintaq, tarmoq va qishloq xo'jaligi korxonalari darajalarida belgilandigan maqsadlar majmuasi tahlil etilgan.
- **Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, investitsion jozibadorlik, agrosanoat majmui, mintaq, tarmoq, maqsadlar.
- **Аннотация.** В статье рассматриваются требования к системе показателей, разрабатываемых для оценки инвестиционной привлекательности сельского хозяйства, и принципы, которым они должны соответствовать. В статье также проанализирован комплекс целей, поставленных на уровне региона, отрасли и сельскохозяйственных предприятий по повышению инвестиционной привлекательности агропромышленного комплекса.
- **Ключевые слова:** сельское хозяйство, инвестиционная привлекательность, агропромышленный комплекс, регион, отрасль, цели.
- **Abstract.** The article examines the requirements for the system of indicators developed to assess the investment attractiveness of agriculture and the principles they must comply with. The article also analyzes a set of goals set at the regional, sectoral, and agricultural enterprise levels to enhance the investment attractiveness of the agro-industrial complex.
- **Keywords:** agriculture, investment attractiveness, agro-industrial complex, region, industry, goals.

KIRISH

Bizga ma'lumki, iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri bu investitsiyaviy qo'llab-quvvatlashdir. Buning sababi shundaki, iqtisodiyotning real sektoriga kiritilgan investitsiyalar oqimi barcha iqtisodiy jarayonlarni faollashtirib, barcha tarmoqlarni rivojlantirishga va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish orqali mehnat bozoridagi vaziyatni yaxshilashga, bu esa, o'z navbatida, aholi turmush darajasi va o'rtacha ish haqi oshishiga yordam beradi.

Bugungi kundagi global oziq-ovqat xavfsizligi muammosi jiddiy tus olayotgan va oziq-ovqat importini almashtirish vazifasini amalga oshirish zarurati sharoitida investitsiyaviy qo'llab-quvvatlashning ustuvor tarmoqlaridan biri bu qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Chunki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanib, u iqtisodiyot tarmoqlarining kapital, mehnat, axborot va boshqa resurslar migratsiyasi asosidagi o'zaro integratsiyasini rivojlantirish jarayonlarining asosini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadida, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish ko'zda tutilgan [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrosanoat majmuini faol investitsion qo'llab-quvvatlash tarmoqni jadal rivojlantirish omili bo'lib, bu o'z navbatida qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan hududlar iqtisodiyotini rag'batlantirish va aholi turmush darajasini oshirish imkonini beradi[2].

Tarmoq investitsion jozibadorligini statistik baholashda indikatorlar tizimi qo'llanilishi zarurligi hammaga ma'lum. Lekin, adabiyotlarda bu tizimni yaratish bo'yicha, ko'rsatkichlar soni va ularni qanday tartibda guruhlariga ajratishga yondashishga qarab, turli fikr-mulohaza hamda takliflar mavjud. Masalan, ayrim mualliflar ko'rsatkichlar tizimini yoki integral ko'rsatkichni taklif qilsa, boshqalari tarmoq nuqtai nazaridan statistik ko'rsatkichlar kompleksini taklif etadilar va hokazo.

Har qanday tarmoqning investitsion jozibadorligini har qanday ko'rsatkichlar bilan baholab bo'lmaydi. Ularni hisoblashda ko'pchilik olimlar, jumladan A.A. Nabixov[3], Ye.V.Zarova, S.N.Musixin[4], V.M.Ryabtsev[5] va boshqalar

quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarurligini ta'kidlashadi:

- bir butunlik yoki yaxlitlik, uning funktsional-tarkibiy tuzilishi;
 - xalqaro va mamlakatda qo'llanadigan standartlarga mos kelishi;
 - mantiqiy bog'liqligi – iterativligi;
 - tarmoq korxonalarining sifatli va tezkor axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;
 - ko'p variantlilik yoki baholashning ko'p o'lchamliligini va tizim tarkibiy xususiyatlarini ochib berish;
 - ehtimoliy baholash va axborot bazalariga kirish mumkinligi;
 - integral ko'rsatkichni hisoblash hamda interpretatsiya qilish va boshqalar.
- Ko'rsatkichlarning dastlabki to'plamini shakllantirishda esa quyidagi talablarga rioya qilish kerak:
- representativlik, unga ko'ra ko'rib chiqilayotgan toifaning barcha asosiy ko'rsatkichlari ushbu ro'yxatda ko'rsatilishi kerak;
 - axborotning mavjudligi, unga ko'ra keyingi tahlilda ishtirok etadigan ko'rsatkichlar va shaxsiy mezonlar, hech bo'limganda, ularni statistik ro'yxatga olish uchun ochiq bo'lishi va bundan tashqari, ular rasmiy statistik ko'rsatkichlar nomenklaturasiga kiritilishi kerak (yoki ikkinchisining qiymatlari asosida hisoblanishi mumkin);
 - axborot ishonchliligi, unga muvofiq statistik ma'lumotlar va foydalanilgan aniq mezonlar tahlil qilinayotgan jihatning holatini munosib aks ettirishi kerak;
 - solishtirish - ko'rsatkichlarni yagona bazaga keltirish lozim[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tamoyil va talablarni inkor qilmagan holda, ta'kidlash mumkinki, statistik ko'rsatkichlar tizimi o'rganilayotgan va tahlil qilinayotgan tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini to'liq tavsiflay olishi va ichki xususiyatlarini ochib berishi hamda tashqi aloqalarni baholashi, eng asosiysi, tarmoqni strategik rivojlantirish asosida aholi turmush darajasi va hayot sifati o'sishini ifodalay olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, mintaqa agrosanoat majmualarini va ularning sharoitlarini tavsiflovchi qator ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, bizning fikrimizcha, tarmoq rivojiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan faoliyat ularning investitsion jozibadorligidir. Qishloq xo'jaligi tarmog'i investitsiya jozibadorligi

o'zgaruvchilarini shartli ravishda 6 guruhga bo'lish mumkin: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosiy fondlari, tarmoqning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, dehqonchilik ko'rsatkichlari, chorvachilik ko'rsatkichlari, demografik ko'rsatkichlar va ijtimoiy infratuzilma ko'rsatkichlar. Ushbu bo'linish hududlar agrosanoat majmualari ko'p bosqichli tuzilishini, mintaqaviy ierarxiyani, agroiqtsodiy tizimlar, shuningdek, ko'plab omillar o'zaro ta'sirini hisobga olishga yordam beradi.

Bundan tashqari, miqdoriy statistik ko'rsatkichlar bilan ishlash har qanday tahlil usullaridan foydalanishni soddalashtiradi. Foydalaniladigan ko'rsatkichlarning ayrimlari mutlaq, ayrimlari esa nisbiy bo'lib, birinchidan, iqtisodiy-statistik tahlil tartib-qoidalariga zid kelmaydi, ikkinchidan, kichik resurslarga ega bo'lgan hududlar investitsion jozibadorligini ortiqcha baholashga imkon bermaydi.

Tasniflash modelida foydalaniladigan va agrosanoat kompleksi asosiy fondlari mavjudligi, shakllanishi va foydalanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- viloyat qishloq xo'jaligida mavjud asosiy fondlar, mlrd. so'm;
- qishloq xo'jaligida asosiy fondlarni yangilash koeffitsienti;

- qoldiq qiymatning viloyat qishloq xo'jaligidagi asosiy vositalari umumiy qiymatiga nisbati, %;

- yil davomida mintaq qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar, mlrd so'm;

- qishloq xo'jaligiga jalb etilgan investitsiyalarning umumiy investitsiyalardagi ulushi, %.

Makroiqtisodiy va agrosanoat kompleksining viloyat iqtisodiyotidagi o'rnini belgilovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi yalpi hududiy mahsuloti (keyingi o'rinlarda YaHM) fizik hajmining o'rtacha indeksi;
- qishloq xo'jaligining YaHMDagi o'rtacha ulushi, %;
- qishloq xo'jaligi tashkilotlarining mintaq tashkilotlar aylanma mablag'lari (oboroti) dagi ulushi, %;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmidagi viloyat ulushi, %.

Dehqonchilik investitsiyaviy jozibadorligini tadqiq qilish ko'rsatkichlari tizimini turli tartibdagi quyi tarmoqlardan ajratib o'rganishga to'g'ri keladi. Dehqonchilik tarkibiga: dalachilik, sabzavotchilik, o'tloqchilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi qator quyi tarmoqlar kiradi. Ushbu quyi tarmoqlar ichida bir qator belgilarga ko'ra bir hil bo'lgan ekin guruhlarni ajralib ko'rsatish mumkin. Dalachilikning o'zi quyidagilarga bo'linadi:

- don ekinlari yetishtirish;
- texnik ekinlar (paxta, kungaboqar, kanop, zig'ir va hakoza) yetishtirish;

- kartoshka yetishtirish;

- dalada yem-xashak yetishtirish, shu jumladan o't ekish.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda mintaqadagi dehqonchilikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar olish mumkin:

- viloyatda dehqonchilikning rentabelligi, %;

- viloyatda o'rtacha ekin maydonlari o'lchami, ming ga;

- ekin maydonlari o'rta geometrik indeksi gg.;

- viloyatda qishloq xo'jaligida band bo'lgan bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi, mln. so'm / kishi;

- viloyatda dehqonchilikning o'rta geometrik indeksi.

Viloyat chorvachiligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tuzish uchun chorvachilik hayvonlari turlari, naslchilik yo'nalishi, mahsulot turi va maqsadi bo'yicha bo'linish e'tiborga olinishi lozim. Bizga ma'lumki, chorvachilik ham dehqonchilik kabi qator tarmoqchalarga bo'linib ketgan. Jumladan:

- qoramolchilik, shu jumladan sut, go'sht, naslchilik va umumiy foydalanish uchun;

- qo'ychilik - go'sht, mayin junli, yarim mayin junli, qo'pol junli, qorako'l qo'ychiligi;

- cho'chqachilik - naslchilik, iste'mol uchun, cho'chqa yog'i va hakoza;

- yilqichilik, shu jumladan go'sht, sut, naslchilik va umumiy foydalanish uchun;

- echkichilik, shu jumladan sut, go'sht, jun uchun;

- parrandachilik - tuxum, broiler;

- quyonchilik;

- tuyachilik shu jumladan sut, go'sht, jun uchun;

- asalarichilik va boshqalar.

Chorvachilikning yuqorida ajratib ko'rsatilgan tarmoqlarini e'tiborga olgan holda uning investitsion jozibadorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni olish mumkin:

- viloyat chorvachiligining ma'lum bir davrdagi rentabelligi, %;

- chorva mollarining ma'lum bir davrdagi o'rtacha shartli soni, ming bosh;

- viloyatda chorva mollari shartli sonining ma'lum bir davr uchun o'rtacha geometrik indeksi;

- viloyatda qishloq xo'jaligida band bo'lgan kishi boshiga chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni o'rtacha hajmi, mln. so'm/ kishi.

- viloyatda ma'lum bir davr uchun chorvachilik mahsulotlari o'rtacha geometrik indeksi.

Mintaqadagi demografik vaziyatni tavsiflovchi ko'rsatkichlar:

- mintaq qishloq aholisining o'rtacha geometrik indeksi;

- viloyatda qishloq aholisi ulushi, %;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lganlar ulushi, %;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lgan aholining mintaq qishloq aholisiga nisbati, %.

Tarmoq ijtimoiy infratuzilma holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar:

- qishloq aholisiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni, m²;
 - qishloq uy-joy fondi o'sishining o'rtacha geometrik indeksi;
 - ichimlik suv bilan ta'minlangan hududning butun uy-joy fondi umumiy maydonida nisbatan(qishloq joylari) ulushi, %;
 - gaz bilan ta'minlangan hududning butun uy-joy fondi umumiy maydonida nisbatan (qishloq joylari) ulushi, %;
- Agrosanoat majmuasining investitsion jozibadorligini

umuman olganda, uni unsurlari yuqoridagi barcha omillar bo'lgan tizim sifatida ko'rib chiqish kerak. Ushbu tizim shakllanishi va faoliyati resurs hamda strategik omillarning murakkab, o'zaro bog'liq va dinamik o'zaro ta'siridan iboratdir.

Bu omillarning hudud taraqqiyotiga ta'sirini baholash, ularning o'ziga xos o'zaro ta'sir xususiyatlari mazkur tarmoq investitsion jozibadorligini belgilovchi bir qator qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Jumladan: sinergetik bog'liqlik, ijobiy dinamika, stoxastik prognozlash, ko'rsatkichlarning omilli bog'liqligi, rejalashtirish (1-jadval).

1-jadval

Investitsion jozibadorlik tizimi qonuniyatlari [7].

QONUNIYATLAR	ASOSIY QOIDALAR	IZOH
Sinergetik aloqadorlik	Investitsion jozibadorlikning bir yoki bir guruh omillarining oshish yoki kamayish holati qolgan omillarning aynan shunday samaraga kelishiga muqarrar ravishda olib keladi	Tashqi muhitga bog'liq holda tavsif kuchiga qarab turlicha bo'lishi ham mumkin
Ijobiy dinamika	Bir yoki bir guruh omillar o'zgarishi butun bir tizimni harakatga keltirib, ushbu holat tizim muvozanati va butunligini qayta tiklash usul va qoidalarini ishlab chiqishda ifodalanadi.	Omili o'zgarishlar tabiatiga qaramasdan bunday harakatlar ijobiy hisoblanadi.
Stoxastik prognozlashtirish	Investitsion jozibadorlik omillarining konkret vaqt lahzasidagi harakati tizimning keyingi holatlari o'zgarishini aniqlaydi Bu esa o'z navbatida uni prognozlashtirish sharti va imkoniyatlarini taqdim etadi.	Prognoz qilish qobiliyati ko'rsatkichini aniqlash yoki investitsiya jozibadorlikning kelajakdagi holatini ma'lum darajadagi ehtimollik bilan tahlil qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi
Ko'rsatkichlarning omili bog'liqliklari	Investitsion jozibadorlik omillari tashqi muhitni bevosita tavsiflaydi va ularning o'zaro ta'sirining ma'lum bir kombinatsiyasi uning holatini o'zgartirishi mumkin, shuning uchun mintaqaning investitsion jozibadorligining tegishli ko'rsatkichlari, uning investitsion salohiyati va risklarini tavsiflaydi.	Tashqi muhit holati va uning barcha omillari o'zgarishlarini monitoring qilib borish talab etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, birinchi navbatda, omillar investitsion jozibadorlik sinergik bog'liqlikda bo'ladi, ya'ni ulardan biri holatining rivojlanishi, oshishi yoki pasayishi muqarrar ravishda boshqalar uchun ham xuddi shunday ta'sirga olib keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tashqi muhitga qarab, o'zgarishlar kuchiga qarab farqlanadi.

Ikkinchidan, omillardan biri yoki bir guruh omillar o'zgari-shi butun tizim harakatiga olib keladi, bu tizim muvozanati va yaxlitligini tiklash uslub va usullarini ishlab chiqishda ifodalanadi.


Omili o'zgarishlar tabiatiga qaramasdan, bunday harakatni ijobiy deb baholash mumkin. Bu investitsion jozibadorlik tizimining dinamikasi bo'yicha xulosa chiqarishga imkon beradi.

Uchinchidan, investitsion jozibadorlik omillari holatining dinamikligi tizimning keyingi holati tendentsiyalarini aniqlash

imkonini beradi. Bunday prognozlash tabiatan stoxastik bo'ladi. Shu sababli investitsiya jozibadorligining kelajakdagi holatini ma'lum bir ehtimollik darajasi bilan tavsiflash mumkin bo'lgan prognoz ko'rsatkichlariga ehtiyoj paydo bo'ladi. To'rtinchidan, investitsion jozibadorlik omillari tashqi muhitga bevosita ta'sir qiladi va investitsion jozibadorlik ko'rsatkichlari holatini, ya'ni investitsiya riski va investitsiya salohiyatini belgilaydi.

Beshinchidan, investitsion jozibadorlik omillarining ma'lum bir davrdagi holati mintaqa investitsion jozibadorligini boshqarishni rejalashtirish jarayoni mohiyatini belgilaydi.

Investitsion jozibadorlik omillari va qonuniyatlarni tizim sifatida mintaq, tarmoq va qishloq xo'jaligi korxonalari miqyosida tadqiq qilish ular(mintaq, tarmoq, korxona)ning investitsion jozibadorligini shakllantirish jarayoni mohiyatan faqat uni oshirishga qaratilganligini anglatadi.



1- rasm. Qishloq xo'jaligida investitsion jozibadorlikni oshirishning maqsadlar tizimi.

Hudud agrosanoat majmuasi investitsion jozibadorligini oshirish maqsadlarini belgilash jarayonini mintaq, tarmoq va qishloq xo'jaligi korxonalari darajalarida maqsadlar majmuasining ketma-ket qo'yilishiga qarab taqdim etish mumkin (1-rasm).

Albatta bu yerda bosh maqsad - investitsion faoliyatni jadal-lashtirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, barqaror rivojlan-tirish, eksport salohiyatini oshirish va ularni zamonaviy, resurs tejamkor texnika hamda texnologiyalar bilan qurol-lantirish hisoblanadi.

Maxsus maqsadlar mintaq, tarmoq va qishloq xo'jaligi korx-onalari darajalariga qarab guruhlanadi. Jumladan, mintaqaviy maqsadlar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- mamlakat va mintaqada iste'molchilarni keng turdagi yuqori sifatli, arzon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlash;
- yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlar huquqlarini ishonchli himoya qilish;
- o'simliklarni himoya qilish sohasidagi qonuniylik, inson sog'lig'i va atrof-muhit xavfsizligi ustuvorligi tamoyillarini belgilash;
- mamlakat va mintaqada parrandachilikni yanada rivojlantirish, bedana go'shti yetishtirishni sanoatlashtirish;

- ilm va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligi ekin-larini yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan isloh qilinish;

- mamlakat va mintaqada paxta va g'allachilik yo'nalishida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirishga alohida e'ti-bor qaratish;

- oziq-ovqat mahsulotlarini bir joyning o'zida yetishtirish, yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tashish va sotish imkonini beruvchi Agrologistika markaz(ALM)larini barpo etish kabilar.

Tarmoq maqsadlari sifatida:

- suv tanqisligi, qurg'oqchilik, cho'llanish va sho'rlanish sharoitida tuproq unumdorligini oshirish, yerlar degradat-siyasiga qarshi kurashish va qishloq xo'jaligi ekotizimi barqarorligini saqlash;
- qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivo-jlantirish, paxta-to'qimachilik klasterlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari o'rtasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, tarmoqda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;
- paxta xom ashyosini yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalarini tuproq hosildorligi normativlari doirasida belgilash;
- kuchli raqobat hamda iqlim o'zgarishlari sharoitida

qishloq xo'jaligiga innovatsiya va ilg'or ishlanmalarni, intensiv va resurs tejovchi texnologiyalarni iizchil tatbiq qilish;

- ichki bozor ehtiyojini qondirish barobarida, qishloq joylarida zamonaviy savdo, logistika markazlari, chuqur qayta ishlash, saqlash korxonalari rivojlanishiga va eksport imkoniyatlarini kengaytirish;

- qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuqori hosil yetishtirish uchun dehqonlarga munosib mehnat sharoitini yaratib berish;

- eksportbop meva va uzum yetishtirish hajmlarini oshirish, meva-sabzavotlar eksporti geografiyasi kengaytirish, xorij bozorlariga eksport koridorlarini ochish hamda dukkakli va quritilgan mahsulotlar eksportini yo'lga qo'yish;

- paxta-to'qimachilik klasterlarida yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash, agrar sohani sanoatlashtirish, xom ashyoni chuqur qayta ishlab, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish orqali mahsulotlar eksportini oshirish;

- tarmoq texnika ta'minotini yaxshilash hamda ta'minlanish darajasini oshirish;

- urug'chilik tizimini tubdan modernizatsiya qilib, iqlim o'zgarishlariga mos ekinlar urug'chilik tizimini yo'lga qo'yish va sifatli, raqobatbardosh urug'lik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish.

Qishloq xo'jaligi korxonalari miqyosidagi maqsadlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- zamonaviy ilm va innovatsiyalarga asoslangan resurs tejamkor texnologiya va agroteknika tadbirlarini joriy etish, gumusli bioo'g'itlarni qo'llash hisobiga tuproq sifatini yaxshilab, hosildorlikni oshirish;

- qishloq aholisi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish;

- meva-sabzavotchilikda ilm-fan yutuqlari va resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llab, hosildorlik va daromadni muntazam oshirib borish;

- paxtachilikda global iqlim o'zgarishini inobatga olib, ilm-fan tavsiyalari va innovatsiyalar asosida qurg'oqchilik va suvsizlikka chidamli, yangi serhosil, ertapishar navlar maydonlarini kengaytirish, suv va resurs tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash;

- resurs tejovchi innovatsion texnologiyalarni qo'llash hisobiga mahsulot yetishtirish tannarxini qisqartirish va suv tejovchi texnologiyalar joriy etiladigan maydonlarni kengaytirish.

Mintaqa agrosanoat majmui investitsion jozibadorligini oshirishda qullab-quvvatlovchi yoki hamroh maqsadlar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat, ilmiy-texnik va investitsion siyosatni amalga oshirish;
- tarmoqdagi barcha axborot tizimlarini "Raqamli qishloq xo'jaligi" platformasiga integratsiya qilish va mahsulot

yetishtiruvchilarga "bir darcha" tamoyilida kompleks xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

- qishloqlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va qishloqlarda hayot sifatini oshirish.

Albatta, yuqorida keltirilgan maqsadlar mamlakatda tarmoqqa nisbatan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida zamon va makonga qarab o'zgarishi va yanada takomillashib borishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqa va tarmoq investitsion jozibadorligini oshirish jarayonini shakllantirishga investitsion jozibadorlik omillarini aniqlash, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilash va umuman hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya jozibadorligini oshirishga to'squinlik qilayotgan muammolarni tahlil qilish va bu boradagi tegishli chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish, kapital qo'yilmalar uchun eng qulay shart-sharoitlar, buning natijasida investitsion faollikning eng yuqori darajasini ta'minlash bosqichlari majmuasi sifatida qarash mumkin. Yuqoridagilarni umumlashtirib, xulosa qilsak, "mintaqa, tarmoq va qishloq xo'jaligi korxonalari investitsion jozibadorligi" tushunchalari o'zaro bog'langan va o'zaro bog'liq bo'lgan unsurlar(omillar va ko'rsatkichlar) to'plami bo'lib, investitsioning investitsiya ob'ektini tanlash jarayonida afzal ko'rishiga ta'sir qiluvchi ochiq dinamik ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xatamov Ochildi Qurbonovich Termiz davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori / Хатамов Очилди Курбанович Профессор Термезского государственного университета, доктор экономических наук / Khatamov Ochildi Kurbanovich Professor of Termez State University, Doctor of Economics

► o.xatamov@mail.ru

■ <https://orcid.org/0009-0003-9513-9987>

2. Badalov Jamshid Jamolovich Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi / Бадалов Джамшид Джамолович, независимый научный сотрудник Термезского государственного университета / Badalov Jamshid Jamolovich, independent research fellow at Termez State University

► e-mail.jamshidbadalov51@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0004-3347-2626>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. // www.lex.uz
- [2]. Соломонова Е.Б., Коняхина Т.Б., Кузнецова М.А., Танков Е.В. Инвестиции как условие развития сельского хозяйства региона // Экономика и предпринимательство. 2022. № 9 (146). С. 584-587.
- [3]. Набиходжаев А.А., Умарова М.А. Минтақавий статистика.- Т.: 2012. 33 б.
- [4]. Зарова Е.В., Мусихин С.Н. Проблемы использования статистических данных при построении динамических моделей развития экономики и рынка труда. // Вопросы статистики. 2013, №1.-С.51-54.
- [5]. Рябцев В. М., Чудилин Г. И. Региональная статистика:учебник.- М.: МИД, 2001. -380 с.
- [6]. Афанасьев, В.Н., Маркова, А.И. Статистика сельского хозяйства: Учеб.пособие. М.: Финансы и статистика, 2003. -272 с.
- [7]. Ю.И. Наролина. Стратегии повышения инвестиционной привлекательности аграрно-промышленных регионов. / Дисс. на соиск. уч. ст. док. экон. наук-Воронеж, 2014-360 с.